

HUQUQIY IJODKORLIK: ZARURIYAT VA TARAQQIYOT GAROVI

Xalilov Diyorbek Bahodir o‘g‘li

O’zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi Mehnat va Ijtimoiy Munosabatlar Akademiyasi talabasi

Annotatsiya: Maqolaning maqsadi huquqiy ijodkorlik jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minalash va huquqiy tizimni takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu maqolada qiyosiy-huquqiy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni o’rganish va xalqaro tajriba tahlili qo’llaniladi. Muvofaqqiyatli huquqiy ijodkorlik ijtimoiy barqarorlik va qonun ustuvorligini ta’minalashda muhim ro’l ijro etadi. Huquqiy tizim doimiy rivojlanishi orqali ijtimoiy qatlam va jamiyatning haqiqiy ehtiyojlariga moslashib borishi lozim.

Kalit so’zlar: huquqiy ijodkorlik, innovatsion huquq, huquqiy ong, xalqaro tajriba, huquqiy tahlil, huquqiy normalar, integratsiya.

“Huquqiy islohot- barqarorlik va taraqqiyot yo’lidir.”
Sh.M.Mirziyoyev

KIRISH

Huquq va qonun ijodkorligi jarayonini rivojlantirishning muhim masalalari.

Huquqiy ijodkorlik davlat va ijtimoiy qatlam rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so’ng demokratik-huquqiy davlar qurishning tizimli hamda mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy tamoyillarini yaratdi. Ushbu jarayonda qonuniylikni va qonun ustuvorligini ta’minalash uchun huquqiy ijodkorlikning ahamiyati kattadir. Shuningdek hozrgi vaqtarda ushbu jarayon(huquq va qonun ijodkorligi) bilan bog’liq barcha ketma-ketlikni, shu bilan birga huquq va qonun ijodkorligi faoliyatini rejalashtirish va qonunchilik strategiyasini tubdan rivojlantirish lozim. Yuqoridagilarni hisobga holda, huquq va qonun ijodkorligi jarayoni va uni yanada rivojlantirishning ustun yo’nalishlarini tahlil qilish va ularga ilmiy shuning bilan birga amaliy yondashuv assosida tavsif berish yurt taraqqiyotining ayni davrida xorijiy va xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda atroflicha ochib berish muhim masala bo’lib qolmoqda. Shuning uchun yurtimizda huquq va qonun ijodkorligi jarayoniga fuqarolarni jalb qilish, huquqiy ong va ma’daniyatni oshirish, xalqaro tajriba va tahlildan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Huquq va qonun ijodkorligi- bu eng birinchi, vakolati mavjud davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, ularga o’zgartirish kiritish yoki ularni bekor qilishga qaratilgan jarayon. Huquqiy ijodkorlik – bu jamiyatda huquq normalarni yaratish va isloh qilish, rivojlantirish va rasmiylashtirish yoki bekor qilish jarayoni bo’lib, huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun amalga oshiriladi. Ushbu jarayon qonunchilik

faoliyati, normativ-huquqiy hujjalar ishlab chiqish, qonunlarni qabul qilish va ularni takomillashtirishni o’z ichiga oladi. Huquqiy ijodkorlikning mohiyati va vazifalari quyidagilardan iboratdir: Jamiyatda huquqiy tartibni ta’minalash; inson huquq va erkinliklarini himoya qilish; ijtimoiy qatlampdagi munosabatlarni tartibga solish; huquqiy va qonuniy mutanosiblikni ta’minalash. Shuningdek huquqiy ijodkorlik bir qancha umumiylasosiy tamoyillarga suyanadi. Ular: qonuniylik, demokratiklik, ilmiy asoslanganlik, ochiqlik va oshkorlik(shaffoflik), tizimlilik, huquqiy ijob vaqtida zamonaviy va raqamli texnologiyalarning ishtirokini ta’minalash. Huquq va qonun ijodkorligi to’g’risida gap ketganda ushbu jarayon davlat funksiyalarini bajarilishining huquqiy shakli ekanligi bildirib o’tilishi lozim. Huquq ijodkorligi aksariyat davlat tomonidan amalga oshiriladi. Huquq va qonun ijodkorligi qiyin jarayon ekanligini quyidagilardan bilib olishimiz mumkin:

- 1) Qonun va huquq orqali tartibga solinishni talab qiladigan ijtimoiy munosabat, vaziyatni o’rganish, tahlil qilish;
- 2) Ayni bir normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish vakolati mavjud organ yoki mansabdor subyekt(shaxs)ni aniqlash;
- 3) Qabul qilinishi e’tirof etiladigan akt shaklini tanlash;
- 4) Ayni bir jarayon doirasida normativ-huquqiy hujjatni tayyot qilish, qabul qilish, uni o’zgartirish, yangilik kiritish, yoki bekor qilish;
- 5) Jarayonda so’ng qabul qilingan hujjatni huquqqa aloqasi bor organ yoki mansabdor shaxslar e’tiboriga taqdim etish;

Huquq ijodkorligi barcha jarayonlarni amalga oshirish uchun o’zining asosiy qoidalari- prinsiplarga egadir.

Huquq va qonun ijodkorligining rivojlanishi uchun zarur va asosiy yo’nalishlar mavjud. Ular: raqamli qonunchilik, xalqaro huquqiy tajriba integratsiyasi, huquqiy monitoring va tahlil, fuqarolik jamiyatni institutlari va ijtimoiy qatlampolini kuchaytirish va huquqiy eksperimentlar. Ammo, huquq va qonun ijodkorligini rivojlantirishdan oldin barchaga uning qanchalik ahamiyatliligini tushuntirish lozimdir. Bu jarayon avvalo davlat va jamiyat rivojlanishining muhim mexanizmlaridan biridir. Ushbu jarayon qonunlarning tushunarli va ijob etilishi oson bo’lishini kafolatlaydi; fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi; davlat organlari va fuqarolik jamiyatlarini o’rtasidagi muvozanatni mustahkamlaydi va saqlaydi; davlat boshqaruvini samarali va shaffof bo’lishiga xizmat qiladi.

Huquq va qonun ijodkorligini rivojlantirish uchun chora-tadbirlarga keladigan bo’lsak, ularga kelgusida katta e’tibor qaratish shartdir. Ya’ni amaldagi qonunlarni muntazam ravishda tahlil qilish, ularni isloh qilish va yangi me’yorlar bilan to’ldirish yoki almashtirish kerak. Rivojlangan davlatlar qonunchiligin o’rganish, ularning amaliyotidan foydalaniib eng yaxshi variantlarni o’zimizning standartlarga to’g’irlab, milliy qonunchilikka moslashtirish, shuning bilan birga, ushbu loyihalarni ishlab chiqishda olimlar, ekspertlar va fuqarolarning ishtirokini ta’minalash zarur. Fuqarolarning va davlat xizmatchilarining huquqiy savodxonligi va ma’daniyatini oshirish, qonunlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish, ularni amalda qo’llashni o’rgatish ushbu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Huquq

va qonun ijodkorligining rivojlanishi uchun zarur bo’lgan ushbu jarayonlar jamiyat taraqqiyotini ta’minlashning asosiy vositasidir. Uni rivojlantirish orqali davlar boshqaruv samaradorligini oshirish va fuqarolarning huquq va erkinliklarini kuchaytirishga erishish yengil kechadi. Shuning uchun huquq va qonun ijodkorligiga jamoatchilikni chorlash, ulaning huquqiy ma’daniyatini oshirish, xorijiy va xalqaro tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

”Qonun ijodkorligi jarayonida xalqimiz manfaatlarini, ularning hayotiy ehtiyojlarini inobatga olish, qonunlarning hayotiyligini ta’minlash- bugungi kunning dolzarb vazifasidir.”

Sh.M.Mirziyoyev

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, huquq va qonun ijodkorligi davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligini qayd etishimiz lozim. Zamonaviy davrda ushbu jarayon raqamli texnologiyalarni joriy etish, xorijiy va xalqaro huquqiy tajribada integratsiya qilish, huquqiy monitoringni o’stirish kabi yo’nalishlarda takomillashib bormoqda. Bu esa fuqarolar va davlat organlari o’rtasidagi ishonchni mustahkamlash, huquqiy ong va madaniyatni o’stirish va shaffof huquqiy tizimni barpo etishga xizmat qiladi. Umumiy qilib aytganda ushbu jarayonlar huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy kafolatlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Davlat va huquq nazariyasi. SH.A.Saydullayev.
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar to’plami. 2019 yil 30 may.
4. www.yurkitob.uz
5. www.lexuz.uz